



FORMATION OF READING CULTURE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AND USE OF INTERNATIONAL EXPERIENCES IN THIS REGARD

Muazzamxon Mirzoxayitova¹

Fergana State University

KEYWORDS

book, reading, formation of reading culture, quality of education

ABSTRACT

In this article, the formation of the reading culture of elementary school students and its benefits are discussed. In this regard, it is said that the use of international experiences is effective.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.11846433**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Fergana State University, Uzbekistan

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA BU BORADA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

kitob, kitobxonlik,
kitobxonlik madaniyatini
shakllantirish, ta'lim sifati

ANNOTATSIYA/AHHOTACИЯ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va buning foydali tomonlari. Bu borada xalqaro tajribalardan foydalanishning samarali ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Har bir davlatning kelajagi, ertangi kuni bugun o'sib kamol topayotgan o'quvchi yoshlar tomonidan bunyod etiladi. Shu sababdan yoshlarning tarbiyasini har taraflama rivojlantirish, ijobiy taraflama sayqallashtirish eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarga ta'lim berish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev quyidagilarni qayd qilib o'tadi: "Bugungi bolalar ertangi kunda xalqqa aylanadi. Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak. Axborot kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim".

Kitobxonlik o'quvchilarning aql-zakovatini, yuksak ma'naviyatini, ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimidir. Bu tizim boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy, ma'naviy, axloqiy rivojlanishini ham ta'minlaydi, kitob o'qish ishtiyoqini hosil qiladi.

Har bir inson dastlabki tarbiyani, ya'ni ma'naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o'zini qanday tutishni o'rganadi. Ma'naviy ozuqa olishning, chin inson bo'lib yetishishning birdan-bir yo'li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Bu noyob majmua kichkintoylarning dunyoqarashini kengaytiradi, zehni o'tkirlaydi, so'zga chechan hamda mulohazali fikrlashga o'rgatadi. Nutqini boyitadi va unga mazmun bag'ishlaydi, xotirasini mustahkamlaydi.

Kitob mlahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o'rni juda muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va

tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi (2017- yil, 13-sentabr) Qarori [1], "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi [2] kitobxonlikni targ'ib qilish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish borasidagi ishlarning isboti desak hech adashmaymiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda asosiy o'rinlarda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari, ya'ni sinf rahbarlari hamda maktab kutubxonachisi turadi desak o'rinli bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p vaqtlarini oila a'zolariga qaraganda o'qituvchilari bilan o'tkazadilar. Shunday ekan o'quvchilarni kitobsevarlikka o'rgatish o'qituvchilarning mahoratiga bevosita bog'liq. Yosh bolalarni biror narsaga qiziqtirish juda oson, ammo bu qiziqishni yooqotmatlik, sındirmaslik bir muncha qiyin. Shunday ekan kitobxonlik targ'ibotini onda sonda o'tkazmasdan, doimiy olib borish razur.

Har qanday ish-harakat, faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirishda uni tashkil etishga qanchalik ko'p kuch sarflash emas, balki jarayonning davomli, izchil, uzluksiz bo'lishi samarali sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda ham ana shu maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning davomli, izchil bo'lishi muhimdir.

O'qituvchining shirali ovozi va me'yordagi ohang yordamida kitobni o'quvchilarga o'qib eshittirishi ularni kitobga qiziqтира boshlaydi. Voqealar davomida har xil obrazlarga kirib mahorat bilan har bir obrazga o'zgacha yondashish o'quvchilar qiziqishini davomli bo'lishiga sabab bo'ladi. Mutolaa jarayonida turli rasmlardan foydalanish o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishga, tasavvur olamini kengaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari sinfda kitobxonlik musobaqalari, ma'lum bir asar yuzasidan suhbat uyushtirish ham maqsadga muvofiq keladi. Buning natijasida sinfda sog'lom raqobatni shakllantirish mumkin. Bundan tashqari bu jarayonda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, hikoya qilib berish ko'nikmasi shakllanadi, sinfdosh do'stlari bilan taassurotlari almashinadi.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oilaning ham alohida o'rne bor. Dono xalqimiz aytganidek: "Qars ikki qoldan chiqadi". Bir tomonlama harakat bilan biror natijaga erishish mushkul. Bunda ota-onaning o'rne katta. Bolaga alohida vaqt ajratish, birgalikda kitob mutolaa qilish, obrazlar haqida suhbat qurish bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yana bu borada bolalarning har bir savollariga o'z o'rnida javob berish juda ahamiyatli hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish ham foydadan xoli emas.

Xorij tajribalari yoshlarda kitob o'qish, kitobga nisbatan ijobiy kayfiyatni shakllantirish, bosma, elektron, va audio kitoblarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tahliliy o'rganish muammosi yetakchi davlatlar amaliyotida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatdi. Nazariy tahlil natijasida soha bo'yicha yetakchi xorijiy davlatlar amaliyotida quyidagi jihatlarning ustuvorligiga ishonch hosil qilindi:

1. AQSH, Buyuk Britaniya, Yoponiya, Fransiya, Finlandiya Rossiya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda boshlang'ich maktablardan boshlab bolalar va o'smirlarda badiiy kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmasi, malaka va madaniyatni shakllantirish davlat siyosati darajasida hal etiluvchi, shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadigan masala hisoblanadi.

2. Nomlari ko'rsatib o'tilgan davlatlarda kitobga qiziqish, va kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlar ko'rsatkichlarini tahlil qiluvchi monitoring yo'lga qo'yilgan.

3. Bolalar hamda o'smirlarning kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikma, malaka va madaniyatining rivojlanishi nafaqat tadqiqotchil ar-K ristian M.Merga, A.Lenxart, Ye.Jessika Moyer, D.Fallouzlar tomonidan avtonom, shu bilan birga ixtisosl ashgan kompaniyalar tomonidan milliy-ijtimoiy jihatdan o'rganish orqali tashxislanadi.

4. Global axborotlashuv davrida kitob o'qishning innovatsion turlari paydo bo'lganligiga qaramasdan, tobora bolalar va o'smirlar o'rtasida kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, va unga ajratiladigan vaqt hajmi ham kamayib ketmoqda. Bu muammolarning asosiy sababi esa qadriyatlarining o'zgarishi moddiy ehtiyojlari hududining kengayishi, bo'sh vaqtning tobora qisqarib borayotganligi va sayoz badiiy adabiyotlar taqdim qili nayotgani kabilardan iboratdir.

Xorij tajribalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmalarini shakll antirish hamda rivojlantirish uchun bir qator samarali metodlardan foydal anish taklif qilinadi. Quyida ushbu metodlardan bazilarining didaktik imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritiladi:

1.K assl metodi. Unga ko'ra o'qituvchi yoki ota-onalar asarning eng qiziq joyida kitob o'qishni to'xtatib, shu o'rinda o'qishni davom ettirish uchun vaqtlari yo'qligini, bajaradigan boshqa muhim ishlari borligini hagida ayti shadi. Natijada bola asar qahramonining hayoti qanday kechganligini bilishni istaydi va kitobni qo'lga oladi. Boshlang'ich sinflarda alifbodagi harflar bilan tanish bolalar asarning davomini garchi hijjalab bo'lsa-da, o'zlari o'qishga harakat qiladi. Ammo hali unchalik o'qishni yaxshi uddalay olmaydigan bolalar o'z-o'zidan oilaning boshqa a'zolari yoki maktabda o'qituvchidan yordam so'rashga majbur bo'ladi. Shunda oila a'zolari yoki o'qituvchining javobi quyidagicha bo'lishi kerak: "Yaxshi, yordam beraman, lekin, shunday yo'l tutamiz: ikkita xatboshi (abzats)ni men o'qiyman, bitta xatboshini sen!". Voqeaning rivojiga juda qiziqqan bolalar bu taklifga albatta rozi bo'ladi .

2. Iskra Daunis metodi. Psixolog I.Daunis maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda kitobxonlikka qiziqishni rivojlantirish uchun samarasi yuqori bo'lgan metodni asoslab bergan. Psixolog nomi bilan yuritiladigan ushbu metodning mohiyati quyidagicha hisoblanadi: kunlardan bir kuni bola uyquga yotib uyg'onganidan so'ng, yostig'i ostida o'zining sevimli multfilm qahramoni Karl sondan maktub oladi. Maktubda ikki qatorda katta harflar bilan Karlson u bilan do'stlashmoqchi ekanligini hamda unga u yer bu yerda qoldiriladigan sovg'alarni berishi haqida aytadi. Ertasi kuni esa bola yostig'i ostidan yana bir maktubni topadi. Endi maktubda sovg'a haqida emas, balki Karlson uning uchun sirkka bilek qoldirmoqchi ekanligi haqida bildiradi. Ammo biletni olib kelgan vaqtda

bolaning mushugini ko'rib qolib, uning dumidan tortmoqchi bo'layotganda mushuk qattiq miyovlab uni cho'chitib yuboradi. Qo'rqib ketgan Karlson biletni qoldirmay, mushukdan qochib ketadi. Biletni esa qoldirishni unutadi va shu tahlitda har kuni Karlsondan maktub oladi va unda yozilgan matn vaqt o'tishi bilan uzunroq, ammo o'gilishi osonroq bo'lib boradi.

3. "Qadimgi xalqlar" metodi. Ushbu metodni "Kitoblar xalqi" ("Kitobsevar xalq" metodi) deb ham atashadi. Metodning mazmuniga binoan, agarda bola o'zini namunali tutsa, mukofot tarigasida qiziqarli asarning bir necha qatori, hattoki, yarim sahifani o'qishga ruxsat berishgan, shu bilan bir qatorda kitob ko'rinishidagi pechenyelar ham tayyorlashgan. Bola kitob o'qishdek quvonchli hodisa evaziga ana shunday pechenyelarni olgan. Chunki qadimda ko'pgina xalqlar kitob o'qishni bayram tariqasida qabul qilishgan. O'quvchi buni har gal qo'lga kitob ushlagan vaqtda esida tutishi lozim bo'lgan. Agar o'quvchi o'zini namunali tutmasa, oxir-oqibat unga kitob o'qish ruxsat etilmagan. Ushbu metod bolalar kitob (Muqaddas kitob) o'qishga kirishganlarida asoslangan. Aksariyat tadqiqotchilar "Qisqa muddatli" o'qish metodining afzalligi haqida ta'kidlaydi. Ushbu metodning foydaliligi o'quvchini toligtirmagan holatda har kuni uyqudan oldin 10 daqiqadan u bilan birga kitob o'qishni ota-onalarga tavsiya qiladi. Bu yo'sinda yo'l tutilganda boshlang'ich sinfning 1-2-sinf o'quvchilari haftasiga 1 soatga yaqin kitob o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Asarni ifodali, qahramonlarning xarakteri, xatti-harakatlariga mos ohangda o'qish, asarning ma'lum qismlarida qisqa-qisqa to'xtalishlar qilib, bolaga "Sening-cha, voqeaning davomi qanday bo'ladi", deb murojaat qilish (suhbat paytida nasihat qilmaslik, tanbeh, dashnom bermaslik zarur), shu bilan birgalikda mutolaa oxiriga yetganidan so'ng o'rganilgan voqea va hodisa haqida bola bilan birgalikda kichik-kichik suhbat jarayonlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

4. "Asarning muqovasini diqqat bilan o'rganish" metodi. Xorijlik pedagog olimlar tarafidan tavsiya qilinayotgan metodl ardan yana biri - asarning muqovasini diqqat bilan o'rganish sanaladi. Ushbu metoddan samarali foydalanish uchun quyidagicha yo'l tutiladi: Avval kitobxonlarga asarning muqovasini ko'zdan kechirish, asosiy yozuvlar-muallifning ismi, sharifi va asarning nomi hamda illyustratsiyasi ga diqqat qaratish talab etiladi. Keyin esa o'quvchilar ushbu asarning muqovasini ko'zdan kechiradilar va ularga asar muallifining boshqa asarlari haqida qanday ma'lumotlarga egaligini yodga olish taklif etiladi. So'ngra o'quvchilar muallif hayoti va uning asarlariga doir ma'lumotlarni bayon qilishadi. O'qituvchi rahbarligida asar mazmuniga mos holatda ishlangan multfilm yoki badiiy film tomosha qilinganidan so'ng o'quvchilarga asar va badiiy film syujetlarini o'zaro solishtirish topshirig'i beriladi. Yakunida o'qituvchi boshchiligida o'quvchilar tomonidan topshiriqning qay tarzda bajarilishi muhokama qilinadi.

5. "Og'zaki tasvir" metodikasi. Xorijiy mamlakatlarning tajribasida o'quvchilarda kitob o'qish, kitobxonlik malakalarini rivojlantirishda samarali metodlar bilan bir qatorda metodi kalar ham mavjuddir. Ulardan biri "Og'zaki tasvir" metodikasi samaralidir. Bu metodika o'quvchi tasavvurida asarni o'qish paytida paydo bo'lib, undagi obraz va syujetlarning bayonini tasvirlashga xizmat qiladi. Mazkur metodikaning "So'zli tasvir"

degan nomi ham uchraydi. U o'quvchilarda so'z yordamida obrazlarni o'ziga xos xususi yatl arga binoan yanada aniql ashtirish malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

Yuqorida keltirilgan barcha metodlardan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish murakkab pedagogik jarayon. Uning samarali tashkil etilishi boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ushbu jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi.

Fikrimizni xulosalab shuni ayta olamizki boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ularni majburlash emas balki kitobta qiziqitira olishda va bu borada xalqaro tajribalardan foydalanish ham samarali natijalarga erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev.Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017.- 24-b

2. " Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish , kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish borasida amalga oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida "gi qaror.(2017- yil , 13 - sentyabr)

3. Y o'ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. - T.: O'zbekiston, 2003.-298.

4. Matquliyeva Marg'uba Farxodovna, Xudayberganova Feruza Jonibek qizi
"BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINING KITOBXONLIK
MADANIYATINISHAKLLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGI"

5. Quronov D. Muhimi - kitobxonlik darajasi va madaniyati // <https://ziyouz>.

6.<https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-qish-darslarida-o-quvchilarning-ijodiy-qobiliyatlarini-rivojlantirishda-kitobxonlik-ko-nikmasini-shakllantirish>.